



YASHIL IQTISODIYOT: MOHIYATI, TUSHUNCHASI VA RIVOJLANISH TAMOIYILLARI

Ismanov Ibroxim Nabiyeovich,

Farg'ona davlat texnika universiteti, "Iqtisodiyot" kafedrasini mudiri, i.f.d., professor

e-mail: ibroxim.ismanov@fstu.uz.

Bo'taboyev Maxammadjon To'ychiyevich,

Farg'ona davlat texnika universiteti, "Iqtisodiyot" kafedrasini i.f.n. dotsenti

e-mail: maxammadjon.botaboyev@fstu.uz.

MAQOLA HAQIDA

ANNOTATSIYA

Qabul qilindi: 6-oktabr 2025-yil

Tasdiqlandi: 8-oktabr 2025-yil

Jurnal soni: 16

Maqola raqami: 23

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1260>

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/

KEYWORDS

"yashil" iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, ekologik xavfsizlik, energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, ekologik soliqlar, uglerod emissiyasi, iqlim o'zgarishi, atrof-muhit muhofazasi.

Ushbu maqolada "yashil" iqtisodiyot tushunchasi asoslanadigan asosiy jihatlar va tamoyillar ko'rib chiqiladi. Ushbu modelning asosiy maqsadi - turmush darajasini oshirish va tabiiy resurslarni tejash o'rtasida oqilona murosaga erishish diqqat markazida turadi. Muallifning ta'kidlashicha, "yashil" iqtisodiyotning asosiy g'oyasi jamiyatning hozirgi ehtiyojlarini qondirish va tabiiy boyliklarning kamayib ketishiga olib kelmaydigan va kelajak avlodlarning ekologik xavfsizligiga tahdid solmaydigan barqaror rivojlanishni ta'minlashdir. Tadqiqotda "yashil" iqtisodiyot iqtisodiy o'sish, ijtimoiy tenglik, barqarorlik va ekologik xavfsizlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarning murakkab tizimi sifatida ko'rib chiqilgan. O'zbekistonning 2019-2030-yillarda "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasining ustuvor yo'nalishlari va uning amalga oshirish mexanizmlari baholangan. Ekologik soliqlarning ahamiyati va ularning atrof-muhit muhofazasidagi roli o'rganilib, "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha takliflar berilgan.

Kirish. Afsuski, iqtisodiyot va ekologiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalalariga ko'pincha yetarlicha e'tibor berilmaydi. Biroq, iqtisodiy o'sish ko'pincha atrof-muhitning ifloslanishi va yomonlashuvi bilan birga kechishini tan olmaslik mumkin emas. Bu tabiiy resurslarning kamayishi, ekotizimlar muvozanatining buzilishi va iqlim o'zgarishi bilan namoyon bo'lib, keyingi rivojlanish istiqbollarini cheklaydi.

Bugungi kunda dunyo miqyosida ekologik xavfsizlik, atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish kabi masalalar tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Global iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning kamayib borishi va ekologik muammolarning kuchayishi natijasida yashil iqtisodiyotga o'tish zarurati vujudga kelmoqda. Yashil iqtisodiyot – bu insonlar hayoti va sog'lig'i uchun zarur bo'lgan moddiy, ma'naviy ne'matlarni, atrof-muhitni bioxilma-xillikni bir butun saqlab qolgan holda, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari bilan uzviy bog'liqlikda rivojlanayotgan faoliyatdir.

Atrof-muhitni saqlash va inson ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan iqtisodiyot kelajak avlod farovonligini birinchi o'ringa qo'yadi.

"Yashil" iqtisodiyot uzoq muddatli istiqbolda insonlar turmush darajasini oshirishga xizmat qiladigan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish bilan bog'liq faoliyat turlari yig'indisidir. Shu bilan birga, kelajak avlodlar jiddiy ekologik muammolarga yoki resurslar taqchilligiga duch kelmaydi.

"Yashil" iqtisodiyot nazariyasi quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

1. Cheklangan makonda o'z ta'sirini cheksiz kengaytirib bo'lmaydi.

2. Resurslar cheklangan sharoitda o'sib borayotgan ehtiyojlarni cheksiz qondirib bo'lmaydi.

3. Dunyoda hamma narsa o'zaro bog'liq.

"Yashil" iqtisodiyot doirasida bir nechta asosiy yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Ekologlarning fikricha, Yer yuzida iqlimning jiddiy o'zgarishining oldini olish uchun hozirgacha ma'lum bo'lgan barcha yonuvchi foydali qazilmalarning yarmidan ko'pini qo'l tekkizmasdan saqlash kerak. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida bir kishiga to'g'ri keladigan qattiq maishiy chiqindilar miqdori kuniga 1 kg dan 3 kg gachani tashkil etadi.

Sayyoramizning har oltinchi aholisi chuchuk ichimlik suvi tanqisligini boshdan kechirmoqda. Qishloq xo'jaligida organik dehqonchilik qo'llaniladi, bu gerbitsidlar, pestitsidlar, zaharli kimyoviy moddalar va sun'iy o'g'itlardan foydalanishni rad etishni anglatadi. Organik dehqonchilik natijasida olingan

mahsulotlarda genetik jihatdan o'zgartirilgan organizmlar mavjud emas. Ular sun'iy qo'shimchalarsiz ishlab chiqariladi va tabiiy bo'lmagan moddalar bilan aloqa qilmaydigan sharoitlarda saqlanadi.

Uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida energiya samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Eskirgan issiqlik izolyatsiyasi va issiqlik ta'minoti tizimlari bilan jihozlangan turar-joy majmualari katta miqdorda issiqlik yo'qotadi.

Insonning biosferadagi faoliyati ekologik inqiroz sifatida tavsiflanishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarga olib keladi. Bu o'zgarishlarni darajasi va yo'nalishiga qarab baholash mumkin.

Jahonda murakkab, noaniqlik, tez o'zgaruvchanlik vaziyatida atrof-muhitni muhofaza qilish, davlat va ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Jamiyatning ishlab chiqarish salohiyati va samaradorligini, raqobatbardoshlik darajasini oshirish, ularni zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash bilan bir qatorda hayot sifati, real daromadlari, yashash muhitini yaxshilovchi yangi infrastrukturani yaratish yashil iqtisodiyotga o'tishni talab etmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) prognozlariga ko'ra, zamonaviy ishlab chiqarish usuli va iste'mol darajasi bilan 2050-yilga borib, 2000-yilga nisbatan dunyo 61% dan 72% gacha o'simlik va hayvonot dunyosidan mahrum bo'ladi va tabiiy hududlarning saqlanishi 7,5 million kvadrat kilometrga tiklanmaydigan darajada buziladi¹. 2015-yilda Global Footprint Network loyihasi mutaxassislar tadqiqot o'tkazib, Yerning yillik resurslari yetti oy-u 13 kunda sarflanganini aniqladi. Bu haqda amic.ru nashri xabar bermoqda. Olimlar bunday tadqiqotlar bilan 1970-yillardan beri shug'ullanib kelmoqda va sayyoramiz resurslari yildan-yilga tezroq sarflanmoqda. Shunday qilib, 2015-yilda resurslar 2014-yilga qaraganda olti kun oldin tugadi².

Atrof-muhit muammolari hozirda cheklangan ne'mat sifatida iqtisodiyot faniga kiritilgan; yangi oqim — "yashil iqtisodiyot" shakllangan va faol rivojlanmoqda. "Yashil iqtisodiyot" — iqtisodiyot fanidagi yo'nalish bo'lib, uning doirasida iqtisodiyot o'zi mavjud bo'lgan va uning bir qismi bo'lgan tabiiy muhitning bog'liq tarkibiy qismi hisoblanadi; tabiiy resurslardan samarali foydalanish, shuningdek, yakuniy iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish sikliga qaytarish orqali jamiyat farovonligini saqlashga qaratilgan³.

¹ Кокорин А. О. (ред.) Перспективы энергетических технологий. Стратегии и сценарии до 2050 г. Часть 1. Технологии и экономика мировой энергетики до 2050 г. М.: ОЭСР/МЭА, WWF России, 2007. – 206 с.

² Иванова, Н. И., & Левченко, Л. В. (2017). «Зеленая» экономика: сущность, принципы и перспективы. Вестник Омского университета. Серия «Экономика», (2), 19-28

³ Егорова М. С. Экономические механизмы и условия перехода к зеленой экономике // Фундаментальные исследования. – 2014. – № 6-6. – С. 1262–1266.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhitni muhofaza qilish tashkiloti (UNEP) ekspertlari “yashil” iqtisodiyotni “odamlarning farovonligini oshiradigan va ijtimoiy adolatni ta’minlaydigan hamda shu bilan birga atrof-muhit va uning qashshoqlashuvi uchun xavflarni sezilarli darajada kamaytiradigan” xo’jalik faoliyati sifatida ko’rib chiqadilar⁴.

Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi 2009-yilgi global moliyaviy inqirozdan so’ng Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan kiritilgan bo’lib, bugungi kunda uning ahamiyati yanada ortib bormoqda. 2015 yilda butun dunyo mamlakatlari barqaror rivojlanish bo’yicha 2030-yilgacha bo’lgan harakatlar strategiyasi va uning 17 ta Barqaror rivojlanish maqsadlarini qabul qildi. Bu maqsadlar dunyoda qashshoqlikka barham berish, sog’liqni saqlash, ijtimoiy himoya va yangi ish o’rinlarini yaratish kabi turli xil ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish, atrof-muhitni himoya qilish va iqlim inqiroziga qarshi kurashishga qaratilgan.

Shunday qilib, barqaror rivojlanish maqsadlari ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar o’rtasida haqiqiy munosabatlarni shakllantirishni ko’zda tutadi. “Yashil iqtisodiyot” bu iqtisodiy tizim bo’lib, uning asosiy maqsadi sayyoramizning ekologiyasini saqlab qolish, tabiiy va jismoniy kapitalni boyitishdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda yashil iqtisodiyotning mohiyati, asosiy tamoyillari va rivojlanish istiqbollari har tomonlama o’rganildi. Tadqiqotning metodologik yondashuvi tizimli tahlil asosida shakllantirilib, unda yashil iqtisodiyotning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik o’lchovlari o’zaro bog’liq holda tahlil qilindi. Mazkur yondashuv O’zbekiston sharoitida ekologik omillarni iqtisodiy o’sish modeliga integratsiyalash imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qildi.

Tadqiqot jarayonida bir qator ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Jumladan, tahliliy metod orqali yashil iqtisodiyot tushunchasining nazariy asoslari, u bilan bog’liq ilmiy qarashlar va mavjud ta’riflar o’rganildi; qiyosiy tahlil yordamida O’zbekistonning yashil iqtisodiyotga o’tish tajribasi Yevropa Ittifoqi, Janubiy Koreya, Yaponiya kabi mamlakatlar tajribasi bilan solishtirildi. Statistik tahlil esa energiya iste’moli, resurslardan foydalanish samaradorligi, uglerod chiqindilari va yalpi ichki mahsulot (YalM) o’sishi o’rtasidagi bog’liqlikni aniqlash uchun qo’llanildi. Shuningdek, ekonometrik modellashirish yordamida ekologik soliqlar va iqtisodiy samaradorlik o’rtasidagi o’zaro ta’sir baholandi. Ushbu metodlar tanlanishi bejiz emas — ular yashil

iqtisodiyot siyosatining iqtisodiy natijalarga ta’sirini empirik jihatdan asoslashga imkon beradi.

Tadqiqotda foydalanilgan ma’lumotlar bazasini O’zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo’mitasi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag’allikni qisqartirish vazirligi, BMTning Atrof-muhit dasturi (UNEP), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) hamda Jahon banki hisobotlari tashkil etadi. Shu bilan birga, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, “Yashil iqtisodiyotga o’tish strategiyasi” va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar ham metodologik asos sifatida o’rganildi.

Tadqiqot natijalariga tayanib, yashil iqtisodiyotga o’tishda duch kelinayotgan asosiy muammolar tizimlashtirildi hamda ularni bartaraf etish bo’yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Jumladan, ekologik soliqlarni takomillashtirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirish, suv va yer resurslarini boshqarishda innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarurligi asoslab berildi. Shu tariqa, tadqiqot metodologiyasi nazariy va amaliy yondashuvlarning uyg’unlashuviga tayanib, yashil iqtisodiyotning iqtisodiy va ekologik samaradorligini kompleks o’rganish imkonini berdi..

Natijalar. “Yashil” iqtisodiyot konsepsiyasi tarafdorlarining fikricha, mavjud iqtisodiy tizim mukammal emas va bir qator kamchiliklarga ega. Buni muntazam inqirozlar va bozor faoliyatidagi uzilishlar tasdiqlaydi. “Yashil” iqtisodiyot tarafdorlarining fikricha, bu tizim tabiatan isrofgarchilikka asoslangan.

U odamlar, ayniqsa, ba’zi guruhlar hayotida ma’lum yaxshilanishlarga olib kelgan bo’lsa-da, uning faoliyati sezilarli salbiy oqibatlariga olib keladi. Ular orasida ekologik muammolar, tabiiy resurslarning kamayishi, keng tarqalgan qashshoqlik, chuchuk suv, oziq-ovqat va energiya tanqisligi, odamlar va mamlakatlar o’rtasidagi tengsizlikni ajratib ko’rsatish mumkin. Bu omillarning barchasi kelajak avlodlar uchun xavf tug’diradi.

Iqtisodiyotning hozirgi modelini “jigarrang” deb atashadi. 1934-yildayoq oddiy YalM konsepsiyasi muallifi Saymon Kuznets AQSH senatorlari oldida so’zga chiqib, shunday ogohlantirgan edi: “Millat farovonligi milliy daromad bilan yetarlicha o’lchanishi mumkin emas”⁵. Atrof-muhit bilan bog’liq soliq tushumlarining yalpi ichki mahsulotga nisbati Meksikada 0,06% dan (2014) 4,17% gacha (2020) oshgan⁶. Yevropa Ittifoqi davlatlarida (Daniya, Finlyandiya, Norvegiya, Buyuk Britaniya, Germaniya va Gollandiya) 2014-yili atrof-muhit bilan bog’liq ekologik soliqlar 1,8%dan 3,1%gacha (2020) oshgan⁷.

1-jadval
Yevropa Ittifoqi davlatlarida ekologik soliqlarning turlari va ularning amaliyoti⁸

DAVLAT	EKOLOGIK SOLIQ TURI	ASOSIY XUSUSIYATLARI
DANIYA	Uglerod solig’i	Sanoat va energetika korxonalariga joriy qilingan, YAIMning 0,3% ni tashkil etadi
FINLYANDIYA	Energiya solig’i	Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rag’batlantiradi, YAIMning 2,1% ni tashkil etadi
GERMANIYA	Transport solig’i	Avtomobil emissiyasi bo’yicha tabaqalashtirilgan soliq, YAIMning 0,5% ni tashkil etadi
BUYUK BRITANIYA	Poligon solig’i	Chiqindilarni kamaytirishga qaratilgan, YAIMning 0,2% ni tashkil etadi
GOLLANDIYA	Suv ifloslanishi solig’i	Sanoat oqava suvlarini tartibga soladi, YAIMning 0,6% ni tashkil etadi

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish muammolari va takliflar. Hozirgi vaqtda milliy iqtisodiyot ustuvor darajada tabiiy kapitalni intensiv iste’mol qilmoqda, bu o’z vaqtida atrof-muhitni ifloslanishiga, suv tanqisligiga olib kelmoqda. Korxonalarda ishlab chiqarish vositalarining 80-85% eskirgan, bir birlik yalpi mahsulot ishlab chiqarishda energiya normadan ko’p sarflanmoqda⁹.

O’zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda quyidagi muammolar mavjud:

Suv resurslarining tanqisligi. O’zbekistonda 8 mingta suv qudug’i mavjud, lekin ularning 2600 tasi qurib qolgan. Suvdan foydalanish

samaradorligini oshirish va suv tejash texnologiyalari yordamida sug’orish tizimlarini takomillashtirish zarur.

Yer resurslarining degradatsiyasi. O’zbekistonda 20,3 million gektar yer bo’lib, shundan 3-4 mln gektar yerlarda qishloq xo’jaligi ekinlari bilan band¹⁰. Keyingi yillarda yerlar cho’llashishi, quruqlashishi (suv qochishi) oqibatida 70-80% yerlar sho’rlashib, hosildorlik pasayib bormoqda. Masalan, 1 gektar yerdagi paxta hosili 17-20%, bug’doy 13-14%ga kamayib ketgan.

Transport sohasining salbiy ta’siri. Transport sanoatining rivojlanishi infrastrukturani yaxshilagan bo’lsa-da, u atmosferaga parnik

⁴ Зеленая экономика: справ. док. / ЮНЕП. — URL:

http://web.unep.org/greenconomy/sites/unep.org.greenconomy/files/ru_ge_employment.pdf (дата обращения: 21.01.2017)

⁵ Kamilova N.A., Farmonov T.X. “Yashil iqtisodiyotning ekologik-iqtisodiy samaradorligini baholash”, “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali, №4, 2021

⁶ Olimjonov O.O. “Ekologik soliqlarning atrof-muhit muhofazasidagi roli”, “Moliya” ilmiy jurnali, №3(15), 2022.

⁷ “Yashil Iqtisodiyot” darslik 2025-y, M. Butaboyev, I. Ismanov, D. Jumaboyev

⁸ Jadval tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan tuzilgan

⁹ Ismanov, I. N., Muminova, E. A., Rasulova, S. X., & Shabaltina, L. V. (2024). INFLUENCE OF FINANCING INNOVATIONS ON INFORMATION SYSTEMS MANAGEMENT IN THE DIGITAL ECONOMY. Proceedings on Engineering, 6(3), 1145-1152

¹⁰ <https://qalampir.uz/uz/news/uzbekistonda-23-mln-gektar-k-ishloq-yerlarining-elektron-kharitasi-yaratildi-51927>

gazlari chiqarishini ko'paytirmoqda, iqlim o'zgarishiga ta'sir qilmoqda va aholi salomatligiga zarar yetkazmoqda.

Yashil iqtisodiyotga investitsiyalar yetishmasligi. Hozirgi vaqtda yashil iqtisodiyotga sarflanayotgan investitsiyalar miqdori cheklangan, buning ustiga davlat xarajatlari qisqarib bormoqda.

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha quyidagi takliflar ishlab chiqilgan:

Ekologik soliqlarni takomillashtirish. Joriy yillarda (2023-2025) Farg'ona viloyatida ekologik soliqqa tortishda islohotlar o'tkazib, ekologiya solig'i komponentlarini kengaytirish, ya'ni an'anaviy energiyadan foydalanishda, transport sohasida yagona uglerod solig'ini qo'llash, poligonlarda chiqindilarni yoqib yuborishda yoki ko'mishda, plastik materiallardan ishlab chiqarilgan buyumlarni, materiallarni yoqqanligi, atrof-muhitni ifloslantirgani uchun soliq joriy qilish lozim.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish. Quyosh, shamol va bio-energiya kabi qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, ularni targ'ib qilish va qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish zarur.

Suv resurslarini boshqarishni yaxshilash. Sug'orish tizimlarini modernizatsiya qilish, tomchilatib sug'orish texnologiyalarini joriy etish, suv resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlash kerak.

Yer resurslarini muhofaza qilish. Yerlarni qayta ishlash, sug'orish, meliorativ holatini yaxshilash, mahalliy o'g'itlardan foydalanish, almashlab ekishni yo'lga qo'yish, yerlarning tanazzuldan saqlab qolish va o'rtacha hosildorlikni 20-25% gacha oshirish choralari ko'rish zarur.

Transport sektorini ekologizatsiyalash. Jamoat transportini

rivojlantirish, elektr transport vositalarini rag'batlantirish, velosiped yo'laklarini qurish va piyodalar uchun infrastrukturani yaxshilash orqali atmosferaga chiqarilayotgan zararli moddalarni kamaytirish lozim.

Jahon iqtisodiy tanazzuli sharoitida atrof-muhitni muhofaza qilish masalalariga qiziqishning pasayishi kuzatildi. Ekologik dasturlarni moliyalashtirish qisqartirildi, loyihalarni amalga oshirish vaqtincha to'xtatildi. Kompaniyalar foydani oshirishga intilib, ekologik tashabbuslarga xarajatlarni ham kamaytirdilar, bu esa mamlakatdagi ekologik vaziyatning yomonlashishiga olib keldi.

Biroq, davlat inqirozga qarshi choralar doirasida ekologik loyihalarni moliyalashtirishni ko'paytirishi mumkin. Janubiy Koreya, Xitoy, Fransiya, AQSH kabi ko'plab davlatlar aynan shunday yo'l tutdi. Inqirozga qarshi choralar umumiy hajmining 80,5%, 38%, 21% va 12% i ekologiyaga sarflangan.

Ma'muriy choralarning joriy etilishi natijasida mamlakatda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining (QTEM) rivojlanishi sezilarli darajada sekinlashdi, bu esa davlatning innovatsion texnologiyalar uchun investitsiyaviy jozibadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Biroq, O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga o'tish uchun katta salohiyat mavjud.

Muhokama. Yevropa Ittifoqi davlatlari va jahon hamjamiyati 2021-2030 yillarga mo'ljallangan "Yangi 10-yillik harakati: barqaror va yashil iqtisodiy o'zgarishni tezlashtirish" nomli strategiyani qabul qildi. Bu strategiya yashil iqtisodiyotga o'tishning asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi.

2-jadval

Yashil iqtisodiyotning asosiy xususiyatlari va uning afzalliklari¹¹

YASHIL IQTISODIYOT XUSUSIYATLARI	AFZALLIKLARI
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISH	Atmosferaga chiqariladigan zararli gazlarning kamayishi, energiya xavfsizligining oshishi
RESURS TEJAMKORLIGI	Tabiiy resurslarning barqaror iste'moli, ishlab chiqarish xarajatlarning qisqarishi
EKOLOGIK TOZA TEXNOLOGIYALAR	Atrof-muhit ifloslanishining kamayishi, aholi salomatligining yaxshilanishi
BIOXILMA-XILLIKNI SAQLASH	Tabiiy muvozanatning saqlanishi, qishloq xo'jaligi barqarorligining oshishi
"YASHIL" ISH O'RINLARI YARATISH	Iqtisodiy faollikning o'sishi, ijtimoiy tenglikning yaxshilanishi

Masalaning qo'yilishi. Yashil iqtisodiyotning mohiyati, tushunchasi va rivojlanish tamoyillarini tadqiq etish uchun quyidagi asosiy masalalarni ko'rib chiqish zarur:

1. Yashil iqtisodiyotning konseptual asoslarini, uning maqsad va vazifalarini aniqlashtirish;
2. O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasining ustuvor yo'nalishlarini tahlil qilish;
3. Ekologik soliqlarning atrof-muhit muhofazasidagi rolini baholash;
4. Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi. 2019-2030-yillarda O'zbekiston Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasida¹² quyidagi ustuvor yo'nalishlar belgilangan:

1. **Milliy iqtisodiyotda energiya samaradorligini oshirish.** Strategiyada belgilab olingan birinchi ustuvor yo'nalish bo'yicha milliy iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida energiya samaradorligini 2030 yilga qadar 2 baravar oshirish vazifasi belgilangan¹³. Ushbu maqsadga sanoat korxonalarini infratuzilmasini modernizatsiyalash, yashil va ekologik xavfsiz texnologiyalarni qo'llash asosida energiya samaradorligini 20% ga oshirish mo'ljallangan.
2. **Energiya resurslari iste'molini diversifikatsiyalash va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish.** O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tishda energiya resurslari iste'molini diversifikatsiyalash va qayta tiklanuvchi resurslardan foydalanish

ikkinchi yo'nalish deb belgilangan¹⁴. Ushbu maqsadga erishishda qayta tiklanuvchi energiya resurslaridan foydalanish, yashil binolarni qurish va yer usti transport parklarini elektrlashtirish belgilangan.

3. **Iqlim o'zgarishiga moslashish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va bioxilma-xillikni saqlash.** Uchinchi ustuvor yo'nalish iqlim o'zgarishiga moslashish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va bioxilma-xillikni saqlash belgilangan. Suv resurslaridan oqilona foydalanish, suv qochishini oldini olish, sug'orish ariqlarini betonlash, 1 million gektar maydonda tomchilatib sug'orish texnologiyasini joriy etish va u yerda yetishtirilgan hosilni 20-40% gacha oshirish vazifa qilib qo'yilgan.

4. **Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish.** Uglerod emissiyasini atmosferaga chiqishini normallashtirish, uglerod savdosini yo'lga qo'yish, yashil texnologiyalarni joriy etish va yashil iqtisodiyotga o'tishda normativ-huquqiy bazani takomillashtirish belgilangan. Yashil iqtisodiyot tamoyillarini ta'lim va fanga integratsiya qilish, yashil investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash ham muhim vazifalar sifatida qayd etilgan.

Ekologik soliqlarning ahamiyati. Yashil iqtisodiyotga o'tishda ekologik soliqlar muhim rol o'ynaydi. Atrof-muhit bo'yicha bahs-tartishlar birinchi marta Pearce (1991) tomonidan taklif qilingan "Ikki karra dividend" munozarasida ekologik soliqning samaradorligi tahlil qilingan¹⁵. Uglerod va energiya solig'i ertami-kechmi bizni adolatli soliqqa olib keladi. 2020-yili Yevropa Ittifoqi davlatlarida ekologik soliqlarning ekonometrik modeli o'ranganilganda bandlikni 3% oshgani, yalpi ichki

¹¹ Jadval tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan tuzilgan

¹² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-2030-yillarda "O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" to'g'risidagi qarori, 04.10.2019

¹³ UNEP. "Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication". United Nations Environment Programme, 2011

¹⁴ OECD. "Green Growth Indicators", OECD Green Growth Studies, Paris, 2022

¹⁵ Abduraxmonov K.X., Zokirov S.S. "Yashil iqtisodiyot: nazariya va amaliyot", Toshkent, "Iqtisodiyot", 2020.

mahsulotni 2% oshgani, uglerod chiqindilari 5% kamaygani qayd etildi. Bu Yevropa uchun katta ikki baravar dividend bo'ldi.

Xulosa va takliflar. Yashil iqtisodiyot bugungi kunda barqaror rivojlanishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. U insonlar farovonligini oshirish, ijtimoiy adolatni ta'minlash va atrof-muhitni muhofaza qilish kabi muhim vazifalarni o'z ichiga oladi. Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, suv va yer resurslarini oqilona boshqarish, transport sektorini ekologizatsiyalash kabi ustuvor yo'nalishlarga e'tibor qaratish lozim.

Bizningcha, O'zbekiston sharoitida iqtisodiyotini ekologiyalashtirish jarayonini tezlashtirish uchun bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish darkor:

1. Atrof-muhitning yomonlashuvi sabablari to'g'risida aholining xabardorligini oshirishga qaratilgan ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishga e'tibor qaratish muhimdir.

2. Ish samaradorligini oshirish uchun ta'sirchan iqtisodiy rag'batlarni yaratish orqali ekologiya sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish zarur.

3. Ifloslantirishga to'g'ridan to'g'ri soliqlardan "uglerod solig'i" deb ataladigan soliqni joriy etish orqali soliqqa tortish tizimini isloh qilish kerak. Bu kam uglerodli zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga yordam beradi va ishlab chiqarishning yanada ekologik toza modellari o'tishni rag'batlantiradi. Ekologik soliqlar yashil iqtisodiyotga o'tishning muhim instrumentlaridan biri hisoblanadi. Yevropa tajribasi ko'rsatganidek, to'g'ri ishlab chiqilgan ekologik soliq siyosati nafaqat atrof-muhit muhofazasiga, balki iqtisodiy o'sish va bandlik darajasini oshirishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

4. Ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish va barqaror rivojlanish tamoyillariga mos keladigan ishlab chiqarish

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-2030-yillarda "O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" to'g'risidagi qarori, 04.10.2019.

2. Кокорин А.О. (ред.) Перспективы энергетических технологий. Стратегии и сценарии до 2050 г. Часть 1. Технологии и экономика мировой энергетики до 2050 г. М.: ОЭСР/МЭА, WWF России, 2007. – 206 с.

3. Иванова, Н. И., & Левченко, Л. В. (2017). «Зеленая» экономика: сущность, принципы и перспективы. Вестник Омского университета. Серия «Экономика», (2), 19-28

4. Егорова М. С. Экономические механизмы и условия перехода к зеленой экономике // Фундаментальные исследования. – 2014. – № 6-6. – С. 1262–1266.

5. Зеленая экономика: справ. док. / ЮНЕП. – URL: http://web.unep.org/greenconomy/sites/unep.org.greenconomy/files/ru_ge_employment.pdf (дата обращения: 21.01.2017).

6. UNEP. "Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable

usullarini joriy etishga qaratilgan davlat xaridlari siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish zarur.

5. Iqtisodiyotning an'anaviy tarmoqlarini modernizatsiyalashni moliyalashtirish bilan bir qatorda, ekologik infratuzilmaga davlat investitsiyalarini ko'paytirish muhim ahamiyatga ega. Bu nafaqat jamoat transportini rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, balki energiya tejamkor binolar barpo etishni ham anglatadi.

6. Korxonalarning atrof-muhitga ta'siri to'g'risidagi ma'lumotlarning to'liq shaffofligini ta'minlash va samarali korporativ ekologik nazorat tizimini joriy etish zarur.

Ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi O'zbekiston iqtisodiyotining jahon maydonidagi mavqeyini mustahkamlashga, fuqarolarning turmush sharoitlarini yaxshilashga va uglerod chiqindilari kam bo'lgan barqaror rivojlanishga o'tishga yordam beradi. Bu, o'z navbatida, "yashil" iqtisodiyotning global maqsadlariga erishishga muhim hissa bo'ladi.

Yurtimizning iqtisodiy rivojlanishiga ekologik tozalik tamoyillarini joriy etish ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turini sezilarli darajada kengaytirish va tabiiy resurslarni chuqur qayta ishlash orqali ishlab chiqariladigan tovarlar eksportini ko'paytirish imkonini beradi. Bu, o'z navbatida, milliy korxonalarining xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshiradi. Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish uchun kompleks yondashuv, ya'ni huquqiy-me'yoriy bazani takomillashtirish, investitsiyalarni jalb qilish, ilmiy- texnik salohiyatni oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va aholi ongida ekologik madaniyatni shakllantirish zarur. Bu chora-tadbirlar O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga muvaffaqiyatli o'tishni ta'minlashga xizmat qiladi

Development and Poverty Eradication". United Nations Environment Programme, 2011.

7. OECD. "Green Growth Indicators", OECD Green Growth Studies, Paris, 2022.

8. Abduraxmonov K.X., Zokirov S.S. "Yashil iqtisodiyot: nazariya va amaliyot", Toshkent, "Iqtisodiyot", 2020.

9. Kamilova N.A., Farmonov T.X. "Yashil iqtisodiyotning ekologik-iqtisodiy samaradorligini baholash", "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali, №4, 2021.

10. Olimjonov O.O. "Ekologik soliqlarning atrof-muhit muhofazasidagi roli", "Moliya" ilmiy jurnali, №3(15), 2022.

11. "Yashil Iqtisodiyot" darslik 2025-y, M.Butaboyev, I.Ismanov, D.Jumaboyev

12. Ismanov, I. N., Muminova, E. A., Rasulova, S. X., & Shabaltina, L. V. (2024). INFLUENCE OF FINANCING INNOVATIONS ON INFORMATION SYSTEMS MANAGEMENT IN THE DIGITAL ECONOMY. Proceedings on Engineering, 6(3), 1145-1152.